


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybulla o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODELI	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHIYATINI BAHOLASHNING HUDUDIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI

Vaisov Dilshod Ibodullayevich

Ma'mun universiteti

Biznesni boshqarish kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

ORCID: 0009-0001-6293-1498.

E-mail: vaisov_dilshod@mamunedu.uz

Madraximov Qahramon Egamberganovich

Ma'mun universiteti

Biznesni boshqarish kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor,

ORCID: 0009-0009-5198-2503.

E-mail: madraximov_qaxramon@mamunedu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyatini hududiy xususiyatlar asosida baholashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqotda 2018–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi hamda Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining asosiy vositalari qiymati, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi va kapital sig'imi ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalarida hududlar kesimida investitsion rivojlanish darajasi, investitsion faollik va kapital ta'minoti bo'yicha mavjud tafovutlar aniqlandi hamda kichik biznesning investitsion salohiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, investitsion salohiyat, hududiy rivojlanish, investitsiya faolligi, asosiy kapital, asosiy vositalar, kapital sig'imi, investitsion samaradorlik, hududiy tafovutlar, Xorazm viloyati, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya siyosati.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты оценки инвестиционного потенциала субъектов малого бизнеса на основе региональных особенностей. В исследовании проведён сравнительный анализ стоимости основных средств, объёма инвестиций в основной капитал и показателей капиталоемкости субъектов малого бизнеса Республики Узбекистан и Хорезмской области за 2018–2024 годы. По результатам анализа выявлены региональные различия в уровне инвестиционного развития, инвестиционной активности и обеспеченности капиталом, а также разработаны научно-практические предложения, направленные на повышение инвестиционного потенциала малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, инвестиционный потенциал, региональное развитие, инвестиционная активность, основной капитал, основные средства, капиталоемкость, инвестиционная эффективность, региональные различия, Хорезмская область, экономическое развитие, инвестиционная политика.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of assessing the investment potential of small business entities based on regional characteristics. The study provides a comparative analysis of the value of fixed assets, the volume of investments in fixed capital, and capital intensity indicators of small business entities in the Republic of Uzbekistan and Khorezm region during 2018–2024. The findings identify regional differences in investment development, investment activity, and capital provision, and propose scientific and practical recommendations aimed at enhancing the investment potential of small businesses.

Keywords: small business, investment potential, regional development, investment activity, fixed capital, fixed assets, capital intensity, investment efficiency, regional disparities, Khorezm region, economic development, investment policy.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyatini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Investitsion salohiyat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalar hajmi bilan bir qatorda ularning hududlar kesimidagi taqsimlanishi va

samaradorligini kompleks baholash ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar kichik biznesning investitsion faolligini oshirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, hududlar o'rtasida kapital sig'imi, asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda investitsiyalar o'zlashtirilishi intensivligi bo'yicha sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda. Bu esa hududiy investitsion rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish va ularni ilmiy asoslangan holda baholash zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur tadqiqotimizning maqsadi 2018–2024-yillarga oid statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyatini hududiy kesimda qiyosiy baholash, asosiy vositalar va asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasini tahlil qilish hamda hududiy investitsion rivojlanishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyatini baholash masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda moliyaviy boshqaruv, investitsion rivojlanish, hududiy iqtisodiyot va raqobatbardoshlik nazariyalarining kesishgan nuqtasida shakllanayotgan kompleks ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda investitsion salohiyatni faqat kapital qo'yilmalar hajmi orqali emas, balki korxonaning investitsiyalarni jalb qilish, ulardan samarali foydalanish hamda uzoq muddatli iqtisodiy qiymat yaratish qobiliyati sifatida talqin qilish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Shu bois investitsion salohiyatni baholashda moliyaviy, institutsional, innovatsion va hududiy omillarning o'zaro integratsiyasini hisobga olish zarurati ortib bormoqda.

Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik dastlab Harrod va Domar tomonidan kapital jamg'arilishining ishlab chiqarish hajmiga ta'siri orqali izohlangan bo'lsa, Solovning neoklassik modeli investitsiyalar samaradorligini texnologik taraqqiyot va mehnat unumdorligi bilan uyg'un holda baholash zarurligini asoslab berdi. Mazkur nazariyalar keyinchalik korxonalar darajasidagi investitsion rivojlanish tadqiqotlarining metodologik asosiga aylandi. Porter esa investitsiyalarni raqobat ustunligini shakllantiruvchi strategik resurs sifatida talqin qilib, kapital qo'yilmalar tarkibi, innovatsiyalar va hududiy ishlab chiqarish muhiti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslab berdi. Natijada investitsion salohiyat korxonaning joriy moliyaviy imkoniyatlarini emas, balki kelajakdagi raqobatbardoshligini belgilovchi omil sifatida qarala boshlandi.

So'nggi yillarda IHTT, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznesning investitsion rivojlanishi institutsional muhit sifati, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, asosiy kapitalning modernizatsiyasi va innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan izohlanmoqda. Mazkur tashkilotlar investitsion faollikning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi iqtisodiy o'sish sur'atlari va ishlab chiqarish samaradorligidagi tafovutlarning asosiy sabablaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Shu nuqtai nazardan, investitsion salohiyatni hududlar kesimida baholash davlat investitsiya siyosatini takomillashtirishning muhim ilmiy asoslaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham kichik biznesni investitsiyalar orqali rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratganlar. O. Sharifxo'jayev va U. G'afurov kichik biznesni iqtisodiy o'sishning strategik omili sifatida baholab, investitsiya resurslarining korxonalar barqaror rivojlanishidagi ahamiyatini asoslab berganlar. A. Vahobov investitsiya siyosatining makroiqtisodiy jihatlarini yoritib, kapital qo'yilmalar iqtisodiy tarkibiy o'zgarishlarning asosiy drayveri ekanligini ta'kidlagan. H. Hamroyev davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining investitsion faollikka ta'sirini tahlil qilgan bo'lsa, O. B. Ulmasova innovatsion-investitsion rivojlanish, raqamli transformatsiya va texnologik modernizatsiyaning kichik biznes samaradorligiga ta'sirini ilmiy asoslab bergan. Mazkur tadqiqotlarning umumiy jihati investitsiyalarni korxonalar taraqqiyotining asosiy sharti sifatida baholashdan iborat bo'lsa-da, ularning aksariyatida hududlar kesimida kapital sig'imi, asosiy vositalar tarkibi va investitsion faollikning o'zaro bog'liqligi yetarli darajada kompleks baholanmagan. Shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlarda investitsion salohiyat ko'pincha alohida moliyaviy ko'rsatkichlar orqali tahlil qilinadi, biroq hududiy rivojlanish xususiyatlari, asosiy vositalar qiymati va investitsiyalar dinamikasining o'zaro ta'siri hamda ularning kichik biznes samaradorligiga ta'siri bo'yicha empirik tadqiqotlar ham nisbatan kam uchraydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ishlanmamizda aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirish statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyati qiyosiy tarzda kompleks baholanib, investitsion rivojlanish tendensiyalari hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyati hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib, u korxonalarining ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash imkoniyatlarini ifodalaydi. Investitsion salohiyatni baholashda asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, bir subyektga to'g'ri keladigan kapital sig'imi hamda hududlarning respublika ko'rsatkichlaridagi ulushi asosiy tahliliy indikatorlar hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlarning dinamikasi investitsiya faolligi, kapitalning hududlar bo'yicha taqsimlanishi va kichik biznes subyektlarining rivojlanish istiqbollarini kompleks baholash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi tahlilda 2018–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida kichik korxona hamda mikrofirmalarning asosiy vositalari qiymati va o'rtacha bir subyektga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar qiyosiy asosda tahlil qilinib, hududiy investitsion salohiyatning o'zgarish tendensiyalari hamda kichik biznesni rivojlantirishdagi iqtisodiy ahamiyati ilmiy jihatdan baholanadi (1-jadval).

1-jadval.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari asosiy vositalar qiymati taqqoslama tahlili

Yillar	Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar asosiy vositalarining boshlang'ich qiymati, mlrd so'm		Viloyatning ulushi, foizda	O'rtacha bir subyektga nisbatan asosiy vositalarining boshlang'ich qiymati, mln so'm		Farq (viloyatning respublika ko'rsatkichlariga nisbatan), mln.so'm
	O'zbekiston Respublikasi	Xorazm viloyati		O'zbekiston respublikasi	Xorazm viloyati	
2018	83719,1	2723,8	3,25	318,41	230,54	- 87,87
2019	122305,6	4074,8	3,33	365,35	263,69	- 101,66
2020	130698,8	5976	4,57	317,84	316,61	- 1,24
2021	161370,6	7388,1	4,58	348,66	336,07	- 12,59
2022	188457	8551,5	4,54	359,96	333,83	- 26,12
2023	221896,3	8150,2	3,67	532,02	341,67	- 190,35
2024	288628,5	9899,3	3,43	805,96	482,23	- 323,73

Ushbu jadval 2018–2024-yillarda kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy vositalari boshlang'ich qiymati dinamikasini, hududiy ulushini hamda bir subyektga to'g'ri keladigan kapital sig'imini aks ettirgan. Umumiy asosiy kapital qiymati dinamikasi ko'rsatkichi Respublika bo'yicha 2018-yilda 83 719,1 mlrd so'mni, 2024-yilda esa 288 628,5 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lib, bu qariyb 3,4 barobar o'sishga tengdir. Ayniqsa, 2023–2024-yillarda keskin sakrash kuzatilgan, bu holat investitsion jarayonlarning faollashuvi va asosiy fondlarni qayta baholash kabi omillar bilan izohlanishi mumkin. Xorazm viloyatida bu yo'nalishdagi dinamika barqaror bo'lib, o'rganilgan davrda kichik biznes asosiy kapitali qiymati 2 723,8 mlrd so'mdan 9 899,3 mlrd so'mga, yoxud 3,6 barobarga ko'paygan. Viloyat kichik biznes subyektlarining respublika kapitalidagi ulushi 2018-yildagi 3,25 % dan 2021–2022-yillarda 4,5 % atrofida eng yuqori darajaga chiqqan bo'lsa, 2023–2024-yillarda viloyat salmog'i 3,43 % gacha pasaygan. Bu holat, bizningcha, dastlab viloyatda kichik biznes sohasida investitsiya jarayonlari tezroq va ko'lamliroq bo'lgan, ammo so'nggi yillarda respublika miqyosidagi kichik biznes korxonalarida investitsiyalar ko'proq o'zlashtirilib, asosiy kapital o'sishi yuqoriroq sur'atga ega bo'lganligi bilan bog'liq. Bitta subyektga to'g'ri keladigan asosiy vositalar qiymati ko'rsatkichi ham barqaror o'sgani holda Respublika bo'yicha 2018-yilda 318,41 mln so'mni, 2022-yilda 359,96 mln so'mni va 2024-yilda 805,96 mln so'mni tashkil qilib, o'rtacha bitta kichik biznes subyektiga nisbatan 2,5 barobardan ortiq o'sish mavjudligini va o'rganilgan davrda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatuvchi kichik biznes subyektlarida kapital sig'imining sezilarli oshganini bildiradi.

Xorazm viloyatida esa kichik biznes subyektlarida asosiy vositalar qiymati 2018-yilda 230,54 mln so'mni, 2020-yilda 316,61 mln so'mni (xuddi shu davrda Respublika ko'rsatkichlariga deyarli tenglashgan) va 2024-

yilda 482,23 mln so'mni tashkil qilib, barqaror o'sish tendensiyalari qayd etilgan. Bu yo'nalishda viloyatimizda ham o'sish dinamikasi mavjud bo'lgan holda, 2023–2024-yillarda respublika ko'rsatkichlari bilan tafovut keskin oshganligini ko'rish mumkin. Bevosita kapital qiymatidagi farq dinamikasi o'rtacha bitta kichik biznes subyektiga nisbatan 2018-yilda 87,87 mln so'mga, 2020-yilda 1,24 mln so'mga va 2024-yilda 323,73 mln so'mga teng bo'lgan. Bu holat respublikada kichik biznes subyektlarida asosiy kapitalning konsentratsiyasi va investitsion intensivlik darajasi viloyat ko'rsatkichlaridan yuqoriroq ekanini ko'rsatadi.

Mazkur jadvalning kompleks tahlili shuni ko'rsatadiki:

Respublika bo'yicha kichik biznes subyektlarining kapital sig'imi tez sur'atlarda oshmoqda, bu yirikroq va texnologik jihatdan rivojlangan kichik biznes segmenti shakllanayotganini bildiradi.

Xorazm viloyatida ham kichik biznesning kapital bazasi kengayayotgan bo'lsa ham, bir subyektga to'g'ri keladigan asosiy vositalar qiymati ko'rsatkichi respublika o'rtacha darajasidan sezilarli past bo'lib qolmoqda.

2020-yilda qisqa muddatli konvergensiya yoki tenglashish holati kuzatilgan, ammo keyingi yillarda Respublika umumiy darajasi va viloyat imkoniyatlari orasidagi tafovut yana kuchaygan.

Keyingi jadval faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining taqqoslama tahliliga bag'ishlangan (2-jadval).

2-jadval.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi taqqoslama tahlili

Yillar	Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari, mlrd so'm		Viloyatning ulushi, foizda	O'rtacha bir subyektga nisbatan asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari, mln so'm		Farq (viloyatning respublika ko'rsatkichlariga nisbatan), mln. so'm
	O'zbekiston respublikasi	Xorazm viloyati		O'zbekiston respublikasi	Xorazm viloyati	
2018	33111,9	716,2	2,16	125,93	60,62	- 65,32
2019	70650,2	2073,7	2,94	211,04	134,19	-76,85
2020	77487,9	2173,1	2,80	188,44	115,13	-73,31
2021	85221,1	2628,9	3,08	184,13	119,58	- 64,55
2022	99981	2373,1	2,37	190,97	92,64	- 98,32
2023	145842,8	2194	1,50	349,68	91,98	- 257,70
2024	231829,5	5335,4	2,30	647,36	259,91	- 387,45

Yuqoridagi jadval 2018–2024-yillarda kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari dinamikasini, hududiy ulushini hamda bir subyektga to'g'ri keladigan investitsiya hajmini aks ettirgan. Mazkur ko'rsatkichlar kichik biznesning investitsion faolligi, kapital sig'imi va hududiy rivojlanish intensivligini baholashda muhim ahamiyat kasb etib, bevosita tahliliy davrda umumiy investitsiyalar hajmi dinamikasi yuqori o'sish tendensiyalariga ega bo'lib, Respublika bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy kapitalga investitsiyalari hajmi 2018-yildagi 33 111,9 mlrd so'mdan 2024-yilda 231 829,5 mlrd so'mga yetgan. Bu qariyb 7 barobar o'sishga teng bo'lib, ayniqsa 2023–2024-yillarda katta sakrash trendi kuzatilgan. Bu holat bevosita mamlakatimizda investitsiya muhitining faollashuvi, kreditlash hajmining kengayishi va real sektorni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kuchayishi bilan izohlanadi. Xorazm viloyatida ham kichik biznes sohasida investitsiyalar hajmi 716,2 mlrd so'mdan 5 335,4 mlrd so'mga oshgan, ya'ni 7,4 barobar o'sish qayd etilgan. Demak, mazkur yo'nalishda, ya'ni kichik biznesning investitsion harakati bo'yicha viloyatda ham investitsion faollik yuqori sur'atlarda jadallashgan. Viloyatning respublika investitsiyalaridagi ulushi 2018-yildagi 2,16 % dan 2021-yilda 3,08 % gacha oshgan. Bu davrda hududda investitsiya jarayonlari respublika o'rtacha sur'atlaridan tezroq bo'lganini ham kuzatish mumkin. Biroq viloyatning Respublika investitsiya hajmidagi salmog'i bo'yicha 2022–2023-yillarda ulush 2,37 % va 1,5 % gacha pasaygan. 2024-yilda esa hududning ulushi 2,3 % gacha tiklangan bo'lib, ushbu tebranishlar respublika miqyosidagi kichik biznesga investitsiyalar hajmi ko'rsatkichlari ayrim yillarda viloyatga nisbatan tezroq oshganini ko'rsatadi. Bir subyektga to'g'ri



keladigan investitsiyalar ko'rsatkichi Respublika bo'yicha 2018-yilda 125,93 mln so'mni, 2022-yilda 190,97 mln so'mni va 2024-yilda 647,36 mln so'mni tashkil qilgani holda kichik biznesning investitsion yiriklashishini, 5 barobardan ortiq o'sish ko'rinishida kichik biznes kapital sig'iminining sezilarli oshganini bildirmoqda. Xorazm viloyatida esa mazkur ko'rsatkichlar 2018-yilda 60,62 mln so'mni, 2021-yilda 119,58 mln so'mni va 2024-yilda 259,91 mln so'mni tashkil qilgani holda ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan, ammo respublika ko'rsatkichlariga solishtirganda tafovut keskin kengayganini e'tirof qilish mumkin. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha farq dinamikasi 2018-yilda 65,32 mln so'mni, 2021-yilda 64,55 mln so'mni tashkil qilgani holda, oxirgi uch yildagi keskin o'zgarishlar natijasida 2024-yilda 387,45 mln so'mni tashkil qilgan. Bu holat respublika miqyosida kichik biznesga investitsiyalarning yuqori konsentratsiyasi va kapital intensivligining keskin oshganini ko'rsatmoqda.

Kompleks tarzda tahlilimiz shuni ko'rsatmoqdaki, o'rganilgan davrda Respublika darajasida kichik biznes investitsiya faolligi keskin oshgan va kapital sig'imi yuqori bosqichga ko'tarilgan. Xorazm viloyatida investitsion o'sish mavjud bo'lsa ham, kichik biznesning investitsion intensivligi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan ancha past bo'lib qolmoqda. Bevosita 2023–2024-yillarda respublikamizda hududiy tafovut sezilarli darajada kengaygan, bu kichik biznes investitsiyalarining ayrim hududlarda yuqori darajada konsentratsiyalashuvini anglatadi. Respublikada 2018–2024-yillarda kichik biznesning asosiy kapitalga investitsiyalari jadal sur'atlarda oshgan va investitsion faollik sezilarli darajada kuchaygan. Xorazm viloyatida ham kichik biznes sohasida investitsion o'sish barqaror bo'lsa-da, bir subyektga to'g'ri keladigan investitsiya hajmi bo'yicha respublika darajasidan ancha ortda qolmoqda. Ayniqsa, so'nggi ikki yilda tafovutning keskin kengayishi hududdagi kichik biznes investitsiya siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda. Strategik nuqtai nazardan, viloyatda yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish va kapital sig'imini oshirishga yo'naltirilgan maqsadli investitsiya mexanizmlarini kuchaytirish kichik biznesni rivojlantirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va mehnat unumdorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari 2018–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyati sezilarli darajada mustahkamlanganini ko'rsatmoqda. Asosiy vositalar qiymati va asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining izchil o'sishi korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlari kengayib borayotganini hamda investitsion faollikning ortayotganini tasdiqlaydi. Xorazm viloyatida ham investitsion o'sishning ijobiy dinamikasi kuzatilgan bo'lsa-da, bir subyektga to'g'ri keladigan asosiy vositalar qiymati va investitsiyalar hajmi bo'yicha respublika o'rtacha darajasidan sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda. Bu hududda kapital sig'imi, texnologik jihozlanganlik va investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi. Strategik jihatdan, viloyatda texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish fondlarini yangilash va investitsiyalarni yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarga yo'naltirish zarur, deb hisoblaymiz. Chunki uzoq muddatli rentabellik va mehnat unumdorligi aynan kapital sig'imi va texnologik quvvatning yetarliligi hamda ko'payishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shu munosabat bilan hududlarda investitsiya siyosatini kichik biznesning tarmoq xususiyatlari va hududiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan investitsiya dasturlarini qo'llab-quvvatlash, imtiyozli moliyalashtirish va kafillik mexanizmlarini rivojlantirish hamda hududiy investitsiya infratuzilmasini mustahkamlash zarur. Shuningdek, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini muntazam monitoring qilish va ularni mehnat unumdorligi hamda ishlab chiqarish natijalari bilan uyg'un baholash hududlarda kichik biznesning barqaror rivojlanishi va uzoq muddatli moliyaviy raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vaisov, D. I. (2026). Directions for improving organizational mechanisms to ensure competitiveness of small businesses providing medical services. *International Conference on Science & Technology*, **2**(1), 108–115.
2. Madraximov, Q., Matkarimov, M., Yakubov, A., & Nurjonov, J. Methodological approaches to assessment of entrepreneurial ability. *American Journal of Business Management, Economics and Banking*. ISSN (E): 2832-8078.
3. Matkarimov, M., Madraximov, Q., Sherjonov, S., & Nurjonov, J. The Purpose of Assessing a Person's Entrepreneurial Capacity Is to Classify Their Quality Characteristics. *Green Economy and Development*, **3**(8), 666659.
4. Vaisov, D. I. (2026). Stages of improving the mechanisms for ensuring the competitiveness of small business entities providing medical services. *Научный Импульс*, **4**(41), 86–92.
5. Vaisov, D. I. (2026). Prospects for the development of small business entities in the medical services market. Prospects for the Development of Small Business Entities in the Medical Services Market.
6. Egamberganovich, M. Q. (2025). Mintaqalar kesimida iqtisodiy nomutanosibliklar va ularni kamaytirish strategiyalari. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, **13**(1), 2085–2097.

7. Egamberganovich, M. Q., & Dilshodbekovna, S. M. (2025). O'zbekiston mintaqalari bo'yicha iqtisodiy nomutanosibliklarning konvergentsiya ko'rsatkichlari tahlili. *Journal of Marketing, Business and Management*, **4**(6), 47–54.
8. Vaisov, D. I., Kamil, S., & G'anibekovich, Y. A. (2026). The impact and significance of competitive environment analysis on the competitiveness of entrepreneurs. *Manuscript on Sustainable Economics, Finance, and Management*.
9. Vaisov, D. I. (2025). Tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini baholashni takomillashtirish. *Marketing jurnali*, **11**(240874), 286–295.
10. Egamberganovich, M. Q. (2026). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida sun'iy intellektning ahamiyati. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, **14**(1), 927–935.
11. Мадрахимов, К. Э. (2024). *Худудларнинг иқтисодий ривожланишининг номутаносиблигини бартараф этиш усуллари*. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, **4**(07), 193–201.
12. Vaisov, D. I. (2024). Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ilg'or tajribalar. *Marketing jurnali*, 28–37.
13. Vaisov, D. I. (2023). Kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirishning mintaqaviy muammolari (Xorazm viloyati misolida). *Green Economy and Development*, **1**(11), 662468.
14. Мадрахимов, К. Э. (2024). *Республика худудларининг иқтисодий ривожланиш даражасини таҳлил қилиш*. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, **4**(05), 126–131.
15. Мадрахимов, К. Э. (2024). *Минтақавий иқтисодий сиёсатнинг мақсадли амалга ошириш йўналишлари*. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, **4**(04), 231–239.
16. Мадрахимов, К. (2024). *Минтақавий иқтисодий сиёсатнинг стратегик устувор йўналишлари*. *SCIENCEPROBLEMS.UZ*, **4**, 152–161.
17. Sa'dullayev, A., Vaisov, D. I., & Egamberganov, F. (2023). Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida). *Green Economy and Development*, **1**(6), 662728.
18. Matkuliyeva, S., & Vaisov, D. I. (2023). Mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishida kichik biznesning ahamiyati va roli (Xorazm viloyati misolida). *Ma'mun Science*, **1**(2), 274.
19. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.
20. Solow, R. M. (1956). A contribution to the theory of economic growth. *The Quarterly Journal of Economics*, **70**(1), 65–94.
21. Harrod, R. F. (1948). *Towards a Dynamic Economics*. London: Macmillan.
22. Domar, E. D. (1946). Capital expansion, rate of growth and employment. *Econometrica*, **14**(2), 137–147.
23. Sharifxo'jayev, O., & G'ofurov, U. (2021). *Kichik biznes va tadbirkorlik*. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA.
24. Vahobov, A. V. (2019). *Investitsiyalar*. Toshkent: Sharq.
25. Hamroyev, H. (2022). Hududlarda investitsiya siyosati samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari. Toshkent: Fan.
26. Ulmasova, O. B. (2023). *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
28. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar.
29. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). *Kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari (2018–2024-yillar)*. Toshkent.
30. World Bank. (2024). *World Development Report 2024: The Middle-Income Trap*. Washington, DC: World Bank.
31. OECD. (2024). *Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard*. Paris: OECD Publishing.
32. Asian Development Bank. (2024). *Asian Development Outlook 2024*. Manila: Asian Development Bank.
33. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2024). *World Investment Report 2024*. Geneva: UNCTAD.
34. World Economic Forum. (2019). *The Global Competitiveness Report 2019*. Geneva: World Economic Forum.
35. International Trade Centre (ITC). (2024). *SME Competitiveness Outlook 2024*. Geneva: ITC.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100